

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 5 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**
Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi va uning
shakllanishiga doir ayrim nazariy masalalar

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**
Послание Президента страны к народу и
Олий Мажлису: конституционно-правовой
анализ
- 26 **YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim transformatsiyasi: YUNESKOning
"Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish
to'g'risida"gi Global konvensiyasini ratifikatsiya
qilish zarurati
- 35 **АЛИМУХАМЕДОВ СУХРОБ
АЙБЕКОВИЧ**
Децентрализация системы государственного
управления в унитарных и федеративных
государствах: сравнительно-правовой анализ
- 49 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK
ALISHER O'G'LI**
Soliq maslahati tushunchasining nazariy-huquqiy
jihatleri

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 58 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ
РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК
РУСТАМБЕКОВИЧ**
Реформирование основ сравнительного
правоведения в цифровую эру: новые
принципы и подходы

- 85 **БАЛТАБАЕВА ЖИБЕК БАУЫРЖАНОВНА**
Улучшение системы взыскания алиментов
в Казахстане: проблемы и перспективы

- 94 **ГАФФОРОВ МЕХРАНГИЗ ШАВКАТОВИЧ**
Гражданско-правовые способы защиты
слабой стороны договора

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 107 **CHORIYEV ANVAR QO'ZIYEVICH**
Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar
shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari
himoya qilish shakllari sifatida

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 116 **MAXMADIYAROVA XUMORA O'KTAMOVNA**
Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash
bosqichida taraflar tortishuvini ta'minlash

- 122 **OLIMOV BEKMIRZA TUXTAPULATOVICH**
Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda shaxs
huquqlarini ta'minlash

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 129 **БАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**
Правовое регулирование агентской
деятельности в Республике Узбекистан

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 138 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
TURABAYEVA LAZZAT KALIKULOVNA
Ta'limda innovatsion texnologiyalar

- 146 **НИЯЗОВА НАСИБА ЖУРАБЕКОВНА**
Правовое регулирование статуса языка и
особенности его использования в различных
источниках права

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.4./JUAX3377>
UDC: 378.147+001.895(045)(575.1)

TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Gulyamova Gulnora Yakubovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori,
filologiya fanlari nomzodi
ORCID: 0000-0003-3559-6011
e-mail: g.gulyamova@tsul.uz

Turabayeva Lazzat Kalikulovna,
Muxtor Avezov nomidagi Janubiy
Qozog'iston universiteti
Jurnalistika va qozoq tili kafedrası mudiri,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
ORCID: 0000-0001-8138-674X
e-mail: turabaeva-l@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion ta'lim jarayonida shaxsga bilim berish, unda ko'nikma va malaka hosil qilish hamda dunyoqarashini shakllantirish, ehtiyojlarini qondirish, qobiliyatlarini ochish, rivojlantirishga yo'naltirish kabi ustuvor vazifalar xususida fikr yuritiladi. Bunda pedagogik innovatsiyaning ta'lim maqsadi (nima uchun o'qitish va kimni o'qitish); ta'lim mazmuni (nimani o'qitish); ta'limni tashkil etish shakllari (qanday o'qitish); ta'lim metodlari va vositalari (qanday asosda o'qitish) kabi bahs doirasiga oid jihatlariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida keng qo'llanayotgan "interaktiv metodlar", "innovatsion ta'lim texnologiyalari", "ilg'or pedagogik texnologiya", "progressiv pedagogik texnologiya", "zamonaviy ta'lim texnologiyasi" iboralarining mazmun-mohiyati, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida o'rinli qo'llash, produktiv ta'limda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati, ularning o'quvchi, talabalarni bilimlarni o'zlashtirish, mavzularni mustaqil o'rganib, vaziyatlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va qaror qabul qilishdagi o'rni xususida ham fikr yuritiladi. Davlat hujjatlarida ta'limiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish vazifalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitish metodikasi bo'yicha mashhur nazariyotchi olimlar, tajribali amaliyotchi pedagogshunoslarning fikr va mulohazalari qiyoslangan hamda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: produktiv ta'lim, reproduktiv ta'lim, texnologiya, innovatsiya, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'lim metodi, qobiliyat, pedagogik ijodkorlik, hamjihatlik, hamkorlik.

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ

Гулямова Гульнора Якубовна,
кандидат филологических наук,
профессор кафедры «Узбекский язык и литература»
Ташкентского государственного юридического университета

Турабаева Лаззат Каликуловна,
кандидат филологических наук, доцент,
заведующая кафедрой «Журналистика и казахский язык»
Южно-Казахстанского университета имени Мухтара Ауэзова

Аннотация. В данной статье рассматриваются приоритетные задачи передачи знаний человеку в процессе инновационного образования, формирования у него навыков и компетенций, развития мировоззрения, удовлетворения его потребностей, а также раскрытия и развития дополнительных способностей. Основное внимание уделяется таким педагогическим аспектам, как: цель образования (зачем учить и кого учить?); образовательный контент (чему учить?); формы организации образования (как преподавать?); образовательные методы и инструменты (на какой основе преподавания?). Вместе с этим объясняется смысл таких понятий, как «интерактивные методы», «инновационные образовательные технологии», «передовые педагогические технологии», «прогрессивная педагогическая технология», «современные образовательные технологии», которые широко используются в образовательном процессе, а также целесообразность использования инновационных педагогических технологий в продуктивном образовании. Кроме этого, обсуждается значение передовых технологий в современном образовании, их роль в приобретении студентами знаний, самостоятельном изучении тем, анализе ситуаций, выводах и принятии решений. Наряду с этим уделяется особое внимание государственным документам, в которых чётко указаны задачи по реализации образовательных целей, сопоставляются и анализируются мнения известных теоретиков, опытных педагогов-практиков об актуальных педагогических технологиях и методиках преподавания.

Ключевые слова: продуктивное образование, репродуктивное образование, технологии, инновации, инновационные образовательные технологии, метод обучения, способности, педагогическое творчество, солидарность, сотрудничество.

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Gulyamova Gulnora Yakubovna,
Tashkent State University of Law,
Professor of the Department
of Uzbek Language and Literature,
Candidate of Philological Sciences

Turabayeva Lazzat Kalikulovna,
Mukhtar Auezov South Kazakhstan University,
Head of the Department of Journalism and the Kazakh Language,
Associate Professor, Candidate of Philological Sciences

Abstract. This article discusses the priority tasks of transferring knowledge to a person in the process of innovative education, developing his skills and competencies, developing his worldview, meeting his needs, as well as discovering and developing additional abilities. The main attention is paid to such pedagogical aspects as the purpose of education (why to teach and who to teach?); educational content (what to teach?); forms of educational organization (how to teach?); and educational methods and tools (on what basis of teaching?). At the same time, the meaning of such expressions as “interactive methods,” “innovative educational technologies,” “advanced pedagogical technologies,” “progressive pedagogical technology,” and “modern educational technologies,” which are widely used in the educational process, is explained, as well as the feasibility of using innovative pedagogical technologies in productive education. In addition, the importance of modern technologies in modern education, their role in students’ acquisition of knowledge, independent study of topics, analysis of situations, conclusions, and decision-making are discussed. Along with this, special attention is paid to state documents that clearly indicate the tasks for the implementation of educational goals. The opinions of famous theorists and experienced teaching practitioners about modern pedagogical technologies and teaching methods are compared and analyzed.

Keywords: productive education, reproductive education, technology, innovation, innovative educational technologies, teaching method, abilities, pedagogical creativity, cooperation, collaboration.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri barkamol shaxs, malakali mutaxassisni tarbiyalab, voyaga yetkazishdir. Ta'lim tizimiga oid barcha hujjatlarda malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga, jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasidagi muayyan vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...biz O'zbekistonni rivojlantirishga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik" [1].

Shunday ekan, bugungi kun – "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash" ma'naviy-ma'rifiy harakati tizimining eng dolzarb muammolaridan biri pedagogning kasbiy tayyorgarlik darajasidir. Chunki ta'limning har qanday ko'rinishida pedagog boshqaruvchi hisoblanadi. Bu esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bilan pedagog zimmasiga yanada mas'uliyatli vazifalar yukladi.

Tadqiqotning dolzarbligi

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik texnologiyalarning usul, vositalari, shakl va talablarini puxta bilishi, ta'lim va tarbiya jarayonini uzviylikda to'g'ri tashkil etishi shart.

Kelajagi buyuk bo'lgan demokratik rivojlanish yo'lida turgan davlatimizga yuqori malakali, har tomonlama rivojlangan, insoniy fazilatlarini o'zida mujassam qilgan shaxslar lozimligi Prezidentimiz tomonidan qayta-qayta ta'kidlanadi: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini

oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – aql-zakovat va ilm, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik esa bilimsizlikdir" [1].

Shu bois pedagogik faoliyatda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi mamlakatimiz ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalish davlatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida faol ishtirok etadigan, xalq xo'jaligi, huquqiy ta'lim va boshqa dolzarb vazifalarni hal qila oladigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash zaruratidan kelib chiqib belgilangan.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar demokratik ta'lim tizimiga asoslangan bo'lib, unda olg'a surilayotgan g'oyalar shaxsning ma'naviy madaniyatini insoniyat erishgan barcha yutuqlar asosida qurish, milliy ta'lim tizimini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lishiga erishish, jamiyatga har tomonlama yetuk kadr tayyorlash ishiga qaratilganidir.

Ana shu vazifalarni ijobiy hal etish natijasida aqlan yetuk, axloqan barkamol, dunyoqarashi keng va teran, yaxlit shakllangan komil inson yetishib boradi.

Material va metodlar

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyati, uning kasbiy nufuzini oshirish bilan bog'liqdir. Shunday ekan, sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, uning yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir.

Har qanday ilmiy tadqiqotning samarasi tanlangan tahlil metodlari va ularning nazariy asoslanishiga bog'liq, shu bois asosiy e'tibor zamonaviy pedagogik texnologiyalar,

o'qitish metodikasi bo'yicha mashhur nazariyotchi olimlar, tajribali amaliyotchi pedagog-shunoslarning fikr va mulohazalariga qaratildi, ular o'rganilib qiyoslandi. Bunda konvergent va divergent metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Pedagog har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Shunday ekan, o'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodli, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurga ega, kasbiga tegishli ma'lumoti bor, ya'ni o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim hamda malakalarni egallagan bo'lishi, turli pedagogik vazifalarni tezda yechishi, vaziyatlarni sezishi, o'rganishi va baholay olishi kerak. U pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim.

Xuddi shunday, yuridik ta'limda ham pedagogning kasbiy tayyorgarligi ta'lim sifati, o'qitish metodikasining takomillashuvi, rivojining muhim omilidir. Hozirgi paytda pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya samarasini to'la kafolatlovchi tushuncha deb e'tirof etilsa ham, lekin baribir zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchigina pedagogik jarayonda ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'la oladi. Shuning uchun har qanday ta'lim-tarbiya sifati, unda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalarning samarasi ta'lim tizimining asosiy boshqaruvchisi bo'lgan pedagogning tayyorgarlik darajasiga, kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash har bir jamiyatda nihoyatda katta mas'uliyatni talab qiladigan ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, pedagog ta'lim-tarbiya jarayonining boshqaruvchisi sifatida bilim va mahorat egasi bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyati,

ahamiyatini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini tushunib yetadi. Hozirgi zamon pedagogi o'z mahoratlarini uzluksiz oshira borishi, bugungi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o'zlashtirishi, ijodiy mehnat qilishga intilishi lozim.

"Yangi O'zbekiston – yangicha dunyo-qarash" ma'naviy-ma'rifiy harakati ta'lim-tarbiya tizimida yuqori sifat ko'rsatkichiga erishish yo'llarini belgilab berdi, o'quv rejalariga pedagogik mahorat, ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan yangi fanlar kiritilishiga sabab bo'ldi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ilg'or pedagogik texnologiyaga bo'lgan ehtiyoj juda kuchaydi. Chunki hozirgi kompyuter texnologiyalari asrida ta'limning reproduktiv metod va vositalari jamiyatga shiddat bilan kirib kelayotgan axborot oqimini to'liq o'zlashtira olmayapti. Shu bois ta'limni jadallashtirish, taraqqiy ettirish va samaradorligini oshirish uchun an'anaviy ta'limga har tomonlama yordam beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Demak, innovatsion pedagogik texnologiyaga hozirgi kun ta'lim-tarbiyasining shartlari, barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir va dastur hisoblanadi.

Bugun mamlakatimiz barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Xuddi shunday, mamlakatimizda yuridik ta'lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini unumli qo'llashga doir keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda, pedagogik texnologiyalarning yangi ilmiy-nazariy asoslari, o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajriba to'planmoqda, ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalari o'rganilmoqda.

Respublikamiz hukumati tomonidan ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning

ustuvor sohasi deb e'lon qilinishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining demokratlashuvi va insonparvarlashuvi ta'lim tizimining rivojlanishiga asos bo'ldi va ta'lim tizimida tub islohotlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Hozirgi zamon pedagogining o'z fani mashg'ulotlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi, loyihalashtirishi, kreativ faoliyat yuritishi, innovatsiyalarni amalda keng qo'llashiga keng imkoniyatlar yaratildi.

Bugungi kunda teran va mustaqil fikrlovchi, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishga qodir kadrni shakllantirish – davlatimizning asosiy ustuvor yo'nalishidir. Ana shu yo'nalish mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarni joriy etish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. Har sohaning taraqqiyoti, albatta, soha fanlarini qanday o'qish-o'qitish faoliyatiga samarali ta'sir qiladi. Mamlakatda ta'lim sohasi talab darajasida bo'lmas ekan, bunda samara beradigan novatsiya va innovatsiyalarni amalga tatbiq etish oson kechmaydi, ayrim pedagoglarda zamonaviy pedagogik vositalarini o'zlashtirib olishga, ta'lim-tarbiya jarayonini shu asosda tashkil etishga intilish ham yuqori darajada bo'lmaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Davlatimiz rahbari tomonidan imzolayotgan barcha ta'lim hujjatlarida ta'lim va fanni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Jumladan:

- zamonaviy talablar, ilg'or xalqaro tajriba va mehnat bozori ehtiyojlari asosida yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan, halol kadrlar tayyorlashni ta'minlash;

- o'qitishning kredit-modul tizimini va talabalar bilimni baholash usullarini takomillashtirish, o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash hamda o'quv bazasini modernizatsiyalash;

- rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan ham-

korlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini faollashtirish;

- axborot huquqiy texnologiyalar va tizimlarni (Legal Tech) ishlab chiqqan holda davlat va huquq sohasida ilmiy va innovatsion tadqiqotlarni o'tkazish;

- xorijiy hamkorlar bilan birgalikda kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qilish kabi masalalar fikrimizning yorqin dalilidir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, chunki produktiv ta'limda zamonaviy texnologiyalar o'quvchi va talabalarini ular egallayotgan bilimlarini o'zlari izlanib topishga, mavzularni mustaqil o'rganib, vaziyatlarni tahlil qilishga, xulosalar chiqarish va qaror qabul qilishga o'rgatadi. Shu bois hozirda o'qitish jarayonida "innovatsion ta'lim texnologiyalari", "ilg'or pedagogik texnologiya", "progressiv pedagogik texnologiya", "zamonaviy ta'lim texnologiyasi" iboralari keng qo'llanmoqda.

"Pedagogik texnologiya" nima?

Dastlab "texnologiya" tushunchasi fanga XIX asrning oxirlarida kirib keldi. Bu birikma yunoncha – "texnos" – hunar, san'at, mahorat va "logos" – fan so'zlaridan tashkil topib, "hunar, san'at, mahorat fani" ma'nosini anglatadi. Ta'lim tizimida esa bu tushuncha pedagog tomonidan o'quvchi, talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish, ularda komillik sifatlarini shakllantirish jarayoni tarzida tushuniladi.

Dastlab pedagogik texnologiya tushunchasiga o'quv jarayonini tom ma'noda texnik vositalar yordamida amalga oshirish degan talqinda yondashildi. Hozir bu tushuncha sifat tushunchasi bilan bog'liq faktor asosida tushuniladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga pedagogshunos olimlar tomonidan ko'plab

ta'riflar berilgan. Masalan, rossiyalik olim V.P. Bepalkoning fikricha: "Pedagogik texnologiya – o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir" [2].

"Pedagogik texnologiya – o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlardan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir", deydi V. Klarin [3].

O'zbekistonlik olimlar N. Saidaxmedov va M. Ochilovlarning fikricha: "Pedagogik texnologiya – o'qituvchining o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir" [4].

Yana bir qancha olimlar fikriga ko'ra, pedagogik texnologiya – o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan, aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi [5].

"Pedagogik texnologiya – pedagogik jarayonni muayyan bir jamlanmaga keltirishdir", – deydi yaponiyalik olim Sakomoto.

Yana qator olimlar o'quv jarayoniga tizimli yondashish maqsadi "belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tushuntiradi.

Demak, ta'lim texnologiyasi – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi;

ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish;

ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muay-

yan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimidir.

O'zbek milliy pedagogikasi barcha ta'riflarni o'rganib, ushbu birikmaning eng maqbuli – YUNESKO tomonidan taklif qilingan ta'rifga tayanadi: "Zamonaviy mutaxassis ta'lim texnologiyalarining barchasini, shu jumladan, pedagogik komponentlar, asosiy aspektlarni chuqur o'rganib, tahlil qilishi shart, chunki pedagogik texnologiya – ta'limda samara beradigan metod va vositalardir".

Produktiv ta'lim pedagog zimmasiga qator muhim vazifalarni yukladi. Jumladan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni puxta egallash, ularni o'quv-tarbiya jarayonida o'rinli qo'llay olish, usul, metod va texnologiya tushunchalarini farqlay olish, talaba shaxsiga to'g'ri yondasha olish shular jumlasidanidir. O'quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi, pedagog o'z ustida ishlashi, izlanishi, kasbiy tayyorgarligini, mahoratini muntazam rivojlantirib borishini talab etadi. Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning yutuqlarini yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy – produktiv ta'lim jarayonida o'quvchi, talaba asosiy ijrochiga aylanadi. Shuning uchun malakali kasb egalari, yetuk kadrlar tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni benihoya kattadir. Ya'ni pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi, talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Xulosalar

Davlatimizning ta'lim-tarbiyaga oid qator hujjatlarida ifodalangan g'oyalar yangi O'zbekistonga mos kadr, ya'ni teran fikrga ega bo'lgan, ijod qila oladigan shaxs manfaatini ko'zlaydi. Jumladan, ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish, ta'lim-

tarbiya dasturlarining intellektuallashuvini ta'minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash kabi muhim vazifalari kun tartibiga qo'yilishi, ta'limni axborot bilan ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog'lash, ommaviy axborot vositalarining ta'lim sohasidagi vazifalarini belgilash malakali kadrlar tayyorlashning muhim mezonlaridandir, deb belgilanishi fikrimiz dalilidir.

Darhaqiqat, innovatsion ta'lim sharoitida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitish metodikasiga oid fanlar zamonaviy ta'lim texnologiya shartlarining barcha talablariga javob beradigan ta'limiy mashg'ulot hisoblanadi. Maqsad – mamlakatimizda yashab, ta'lim olayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk-barkamol qilib tarbiyalash, kelajakda pedagogik kasbini tanlagan yoshlarni pedagogik mahoratning talablarini puxta egallagan mutaxassis qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish vazifalari "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning "Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari" deb nomlangan 45-moddasida belgilab qo'yilgan:

- pedagog xodimlarning o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish;

- zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlay olish hamda ulardan oqilona foydalanish;

- pedagogik faoliyatda zarur bo'ladigan amaliy malakalarni shakllantirish;

- davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish;

- ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek, ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq

masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Respublikamizning pedagog olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. Bularning barchasi ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar tufaylidir. Ana shu muhim masalalar ayni vaqtda o'z yechimini topmoqda. Mamlakatimizda yetuk, har tomonlama kamol topgan kadr tayyorlash masalasi davlatimizning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o'z yechimini topishi zarur bo'lgan qator vazifalar Prezidentimizning 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5987-sonli Farmonida aniq belgilab berilgan:

- zamonaviy talablar, ilg'or xalqaro yuridik tajriba va mehnat bozori ehtiyojlari asosida yuqori malakali, ijodiy fikrleydigan, halol kadrlar tayyorlashni ta'minlash;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan, demokratik-huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash kabilar.

Shunday ekan, ta'lim-tarbiya tizimida samara beruvchi har qanday innovatsion holat bu jarayonga tatbiq etilishi lozim. Hozirga kelib pedagogik innovatsiyalar ta'lim samaradorligini oshiruvchi eng muhim jihat deb e'tirof etildi.

Ta'lim-tarbiya masalasi davlatimiz siyosatiga aylangan masala bo'lib, mamlakatimiz ta'lim konsepsiyasida ta'lim-tarbiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi qilib belgilab qo'yilgan ekan, komil inson sifatlarini tarbiyalash aynan pedagog faoliyatiga har jihatdan bog'liq. Bunda ta'lim-tarbiya tizimida pedagogik mahorat tushunchasi yetakchi omil hisoblanadi.

REFERENCES

1. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. 2020, January 24.
2. Bespal'ko V.P. Slagayemyye pedagogicheskoy tekhnologii [Components of pedagogical technology]. Moscow, Pedagogika Publ., 1989, p. 192.
3. Klarin V.M. Pedagogicheskaya tekhnologiya v uchebnom protsesse [Pedagogical technology in the educational process]. Moscow, Znaniye Publ., 1989, p. 75.
4. Saidaxmedov N., Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi [The essence and modern project of new pedagogical technology]. Tashkent, 1999, p. 86.
5. Lerner I.Ya. Vnimanije o tekhnologii obucheniya [Attention to educational technology]. *Pedagogy*, 1990, no. 3, p. 139.
6. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi [Interactive methods: essence and application]. Tashkent, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, 2013.
7. Ashurova S.Y., Nuridinov B.S., Qurbonova F., Imomov M.P. Ta'lim metodlari va ularni maxsus fanlarni o'qitishda qo'llash imkoniyatlari [Educational methods and their application in teaching special subjects]. Tashkent, 2014.
8. Ishmuxamedov R. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar [Innovative pedagogical technologies in education and upbringing]. Tashkent, Oset Prinnet Publ., 2014.
9. Ishmuhammedov R., Mirsoliyeva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari [Innovative educational technologies in the educational process]. Tashkent, 2014.
10. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To'rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari [Fundamentals of pedagogical competence and creativity]. Tashkent, Sano-standart Publ., 2015.
11. Mavlanov A. Ilg'or pedagogik texnologiyalar bo'yicha o'quv mashg'ulotini loyihalash [Designing an educational session on advanced pedagogical technologies]. Tashkent, 2016.
12. Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Mirsoliyeva M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik [Innovative educational technologies and pedagogical competence]. Educational and methodological complex. Tashkent, Center for retraining of teaching staff and advanced training at the Tashkent State Pedagogical University, 2016.
13. Fayziyev Sh., Meliyev I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi [Methodology of teaching special subjects]. Tashkent, Tashkent State Pedagogical University Publ., 2017.
14. Xusanova G.M. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi [Methodology of teaching special subjects]. Educational and methodological complex. Samarkand, Samarkand Institute of Economics and Service, 2019.
15. Ziyamuxamedova Sh. Yuristning yozma nutqi [Written speech of a lawyer]. Tashkent, TSUL Publ., 2019.
16. Abdusamiyev D., Jalolov Sh. Pedagogik nizolarni bartaraf etish – kasbiy deformatsiyani oldini olish usuli sifatida [Elimination of pedagogical conflicts — as a way to prevent professional deformation]. Namangan, Namangan State University Publ., 2021.
17. Gulyamova G. Huquq fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat [Pedagogical technologies and pedagogical skills in teaching legal subjects]. Tashkent, TSUL Publ., 2021.
18. Rustambekov I. Yurisprudensiya ta'lim dasturlarida o'quv darslarini o'tkazish [Conducting training courses in jurisprudence educational programs]. Tashkent, TSUL Publ., 2022.
19. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar [Innovative technologies in education]. Tashkent, 2023.
20. Gulyamova G. Yuridik ta'limda innovatsion texnologiyalar [Innovative technologies in legal education]. Tashkent, TSUL Publ., 2023.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 17,67 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 127.
TDYU tipografiyasida chop etildi.